

**AXBOROT KOMPETENTLIKNI BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA
RIVOJLANTIRISH TIZIMI**

Zakiya Axmedovna Narimbetova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim
metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Naima Jurabayevna Asqarova

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani XTB ga qarashli
36-boshlang'ich ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya:

Maqolada "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalarining metodologik tahlili keltirilgan. Hamda fan va texnika rivojlangan hozirgi paytda ta'lim sohasida Axborot kompetentlikni bo'lajak o'qituvchilarda rivojlantirish tizimi haqidagi fikr va ma'lumotlar bilan berilgan.

Kalit so'z: Kompetensiya, kompetentlik, funksional savodxonlik, ta'lim sifati, o'qituvchi kasbiy kompetenligi.

Аннотация:

В статье представлен методологический анализ понятий «компетентность» и «компетентность», сведения и сведения о системе развития компетентности будущих педагогов в сфере образования в период развития науки и техники.

Ключевые слова: Компетенция, компетентность, функциональная грамотность, качество образования, профессиональная компетентность учителя.

Abstract

The article presents a methodological analysis of the concepts of "competence" and "competence". Information and information about the system of developing competence in future teachers in the field of education at the time when science and technology are developed.

Keywords: Competence, functional literacy, quality of education, teacher's professional competence.

KIRISH

"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"

Shavkat Mirziyoyev

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentlikni bo'lajak o'qituvchilarda rivojlantirish tizimi haqida bo'lib ularga turli texnologik topshiriqlar va metodlar orqali yordam berish haqida yozildi. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari, kasbiy yoki shaxsiy kompetensiyalarini oshirishga doir ma'lumotlar kiritilgan.

Kompetensiya-lotinch "Competentia" so'z bo'lib, o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi "inson yaxshi biladigan", "tajribaga ega bo'lgan" kabi ma'nolarni bildiradi.

Kompetentlik-biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarini bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati. Kompetentlik – kompetensiyaga ega insonni boshqarish tushuniladi, professionallik faoliyati predmetiga tegishli xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Kompetentli yondashuv ilk bor Angliyada, kasbiy sohaning maqsadli buyurtmasi sifatida vujudga kelgan. O'tgan asrning 70-yillarida AQShda biznes sohasida "kompetensiya" va "tayanch kompetensiyalar" tushunchalari muvaffaqiyatli kasb egasi sifatlarini aniqlash muammolari bilan bog'liq holda qo'llanilgan. Yevropa ta'lim fondi 1997yilda kompetensiyani "nimanidir yaxshi yoki samarali bajara olish", "ishga qabul qilinayotganda talab qilinadigan talablarga muvofiq", "o'ziga xos mehnat vazifalarini bajara olish qobiliyati" deb izohlagan. Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'xshash bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi [1].

Kasbiy kompetentlik-mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishidir.

Kasbiy kompetentlikning tarkibiga kasbiy faoliyatidagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o'z kasbini nomoyon eta olishdagi kompetentligini kiritish mumkin.

Kompetentlik nima ekanligini tushungandan so'ng, uning darajalarini aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi. Kompetentlik = Bilaman + Qila olaman + Istayman + Men qilaman kabi bosqichlarda amalga oshiriladi va bo'lajak o'qituvchilarning o'z shaxsiy xulosalari o'zlariga bo'lgan ishonchlarini yanada mustahkamlab, rivojlantirib boradilar. Bularning barchasi faqatgina yosh o'qituvchilardagina emas, balki o'z menini anglagan shaxslarda ham rivojlanishi muhim. Chunki hozirgi kunda ushbu kompetentlikni anglamagan shaxslar ish faoliyatlarida hattoki hayotlari davomida ham mustaqil bo'la olmasliklari yaqqol ko'rinmoqda. Har bir bo'lajak o'qituvchi o'z ustida ko'plab ishlashi, tajribalar orttirishi uchun unda albatta istak va xohish bo'lishi zarur. Bunda esa albatta ularga kasbiy kompetensiyani shakllantirish juda muhim va ular bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayondir. Uni quyidagi bosqichlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Maxsus ma'lumot olish.
2. Amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.
3. Malaka oshirish, maxsus kurs va treninglardan o'tish.
4. Kasbiy tajribaga ega bo'lish
5. O'z sohasida professionallikka erishish

6. Tajriba to'plash, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash bilan pedagogning kompetentligi yaxshilanadi.

Jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagogning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq. Bo'lajak pedagogning yaxshi ishlashini qanday qilib tez va mustaqil ravishda tekshirish mumkin? Muvofiqlikni qanday baholash kerak? Ularning kompetentligini baholash quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan tizimdir:

- pedagoglarning malaka darajasi-baholash uchun etalonga mos mezonlar ishlatiladi;
- mehnat unumdorligi va ish sifati;
- shaxsiy xususiyatlarning ta'lim yo'nalishiga muvofiqligi;
- qo'shimcha ko'nikmalar mavjudligi;
- shaxsiy o'sish va kasbiy rivojlanish istagi.

Bo'lajak pedagoglarning kompetentligini baholashda xatti-harakatlarning ko'rsatkichlariga tayanib ish tutish samaralidir. Aynan shu narsa kompetensiya va kompetentlik orasidagi farqlar nimani anglatishini aniq ko'rsatib beradi. Mutaxassislarining malakalarini baholash muntazam, mustaqil, maqsadli, shaffof, aniq mezonlarga ega bo'lishi kerak.

Kompetentlik nima ekanligini tushungandan so'ng, uning darajalarini aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi. Kompetentlik modelini yaratish bo'yicha quyidagi algoritmni taklif etishimiz mumkin:

1 bosqich-lavozim yo'riqnomasini ishlab chiqish. Ushbu bosqichda lavozim uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar turlarini aniq ko'rsatish muhimdir.

2 bosqich-tekshirish sur'atini aniqlash. Bu ta'lim muassasasining o'ziga xos xususiyatlariga va kadrlar almashinuviga bog'liq.

3 bosqich-har bir o'rin uchun taqqoslash asosida sinov yoki imtihonni o'tkazish tartibini tasdiqlash.

4 bosqich-sinov yoki imtihondan o'tish

5 bosqich-ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni tizimga keltirish.

6 bosqich-baholash natijalari to'g'risida qaror qabul qilish: qo'shimcha o'qishga yuborish, boshqa lavozimga o'tish, ishdan bo'shatish.

7 bosqich-hisobot davrida ta'lim muassasasining vakolati va ishini baholash samaradorligini yakuniy tahlilini qilish.

8 bosqich-xavf-xatar va to'siqlar bo'yicha ish namunasini to'liq ishlab chiqish. Xususiy yoki asosiy kompetensiyalarga ega bo'lish uchun qanday vakolatlarga ega bo'lish har qanday ishda qo'llanilishi kerak. Ular ta'lim muassasaning qadriyatlariga bog'liq: strategiya, axloq kodeksi.

Shaxsiy samaradorlik kompetensiyalari pedagogning shaxsiy fazilatlarini bilan birga o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- yetuklik, o'sishga intilish, masalan, kasbiy qadriyatlarni izlash, ijodiy qobiliyat;
- yetarli darajada o'zini o'zi anglash va o'ziga ishonch;
- moslashuvchanlik, o'zgarish istagi;
- ish etiketini bilish;
- stressga qarshi o'z-o'zini boshqarish;
- imidj.

Bo'lajak pedagog yoki katta yoshli pedagoglarning boshqaruv kompetentligi sifatida jamoaviy ish, rahbarlik, hamkorlik, murabbiylik, rasmiy vakolatlardan foydalanish kabi mezonlar ko'rsatadi.

Taklifimiz, kompetentlik talablariga javob bermaydigan har bir pedagogni qo'shimcha mashg'ulotlarga yuborib, ta'lim muassasasi faoliyatiga asoslangan treninglar o'tkazish maqsadga muvofiqdir, ya'ni pedagoglarni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi shakllanishi "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini anglash darajasi bilan bog'liq. **MUHOKAMA VA NATIJALAR** Tadqiqot tahlillari asosida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, o'qituvchining professional kompetentligi uning kasbiy (ta'limiy, texnologik, metodologik) tayyorgarlik darajasi hamda o'quvchilarning bilim olishga motivatsiyaning kuchliligi bilan baholanadi.

O'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligini o'rganishni quyidagi uch yo'nalishda amalga oshirishni talab etadi:

- tarkibiy tuzilishiga ko'ra (funksional savodxonlik, o'qituvchi, kasbiy kompetentlik tushunchalarining o'zaro bog'liqligi);
- funksionalligiga ko'ra (amaldagi tadbiri);
- genetik (faoliyatni o'tmish, bugun va kelajakda o'rganish asosida o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish)

Kompetentlikni baholashda alohida olingan biror-bir layoqatlilik darajasini emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan uzoq vaqt davomida turli xildagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to'liq to'plamini nazarda tutish kerak bo'ladi. Bunda inson duch kelgan muayyan vaziyat uning rivojlanishiga, qadriyatlarining shakllanishiga va yangi kompetentliklarni egallashiga bevosita ta'sir etadi.

Kompetentlikning mavjudligi inson mehnatining natijasiga qarab aniqlanadi. Har bir mutaxassisning kompetentlik darajasi, uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi. Kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo'lib, uning o'ziga xos tomonlari shuki, kompetentli mutaxassisning bilimlari tezkor va harakatchan bo'lib, ular doimo yangilanib turadi. Muammoning mazmunini tushunishning o'zi yetarli bo'lmay, uni jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, shu bilan birga, kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto'g'ri yo'llarni chiqarib tashlash, ya'ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentlarini baholashda asosiy e'tiborni kompetensiyalarning alohida elementlari mavjudligiga emas, kasbiy vazifalarni hal eta olish layoqatlarini namoyon qila bilishga qaratish lozim. Baholash uchun beriladigan topshiriqlarni real kasbiy vazifalarning imitatsiyasi ko'rinishida shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi, bunda kasbiy masalalarni hal etish jarayonida namoyon bo'ladigan kompetentlarning turli elementlarining rivojlanganlik darajasi baholanadi[2]. Bundan tashqari, baholash natijalari bo'yicha xulosalar bo'lajak mutaxassisning aniqlangan malakalari kasbiy (funksional) vazifalarni bajara olish uchun yetarli darajadami, yo'qmi degan savolga javob berishi zarur. Agar yetarli bo'lmasa, qanday rivojlantiruvchi chora

tadbirlarni amalga oshirish orqali kasbiy kompetentlarni talab darajasiga ko'tarish mumkinligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish lozim.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini baholash metodlari nazoratlar va testlardir. Ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholashda o'tkaziladigan nazoratlarning an'anaviy ta'lim tizimidagi nazoratlardan asosiy farqi shuki, kasbiy kompetensiyalarni baholashda bilim va ko'nikmalarning mavjudligi emas, balki o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatdagi vaziyatlarda qo'llay olish layoqatlari orqali baholanadi. Shu sababli testlar faqat pedagogik, metodik, texnik-texnologik amaliy topshiriqlarga qo'shimcha sifatida ishlatiladi. Nazoratlar quyidagicha o'tkazilishi mumkin: og'zaki muloqot layoqatlarini aniqlash maqsadida og'zaki shaklda; ta'lim natijalariga baho berish uchun og'zaki savollar orqali intervyu shaklida; (audit — tinglamoq, ta'lim oluvchini tinglash va nutqini talqin qilish orqali kompetensiyalariga baho berish maqsadida audit shaklida; nazariy bilimlarni tushunganligi va ularni amalda qo'llay olishini baholash maqsadida yozma (yoki test) shaklda. Nazoratlar turli xil savollarni o'z ichiga olishi mumkin, ya'ni savollar orqali quyidagi talablar qo'yilishi mumkin: qisqa javoblar berish; bir nechta javobdan to'g'risini tanlash va asoslab berish; tuzilmali savollarga esse tipidagi mufassal javoblarni yozish. Tuzilmali savollar birorbir masala bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlarni aniqlashni ko'zda tutadi. Esse tipidagi mufassal javoblarni talab etuvchi savollar ham birorbir masala bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlarni baholash hamda muhokama qilish, taqqoslash, tahlil qilish, baholash yoki muammoning yechimini izlab topish kabi kognitiv kompetensiyalarni aniqlashni ko'zda tutadi. Ular tuzilmali savollardan javobning kengroq bo'lishi bilan farqlanadi. Nazoratlar kompetensiyalarni namoyish qiladigan amaliy mashg'ulotlarga qo'shimcha tarzda o'tkazilishi mumkin.

O'z o'zini ta'riflash. Talabalar o'z kasbiy kompetensiyalarini o'zlari ta'riflab beradilar, bu ta'riflar guruhning boshqa talabalari va o'qituvchi tomonidan tasdiqlanishi kerak. O'zo'zini ta'riflash metodi bu baholanuvchi talabaning o'z kasbiy kompetensiyalari darajasini yozma ravishda o'zi baholashidir. Ta'rifda keltirilgan barcha ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tekshiriladi va tasdiqlanadi. Ta'rifda, odatda, quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi: talabaning ismi-sharifi, ta'lim bosqichi, akademik guruhi; talabaning mazkur fan bo'yicha bajargan ilmiy yoki ijodiy ishlari ro'yxati; talaba tomonidan o'z kasbiy kompetensiyalarining baholanishi; kelajakda kasbiy jihatdan o'zini takomillashtirish va o'sish bo'yicha rejalari; o'quv yurtidagi ta'lim jarayoni to'g'risidagi fikrlari va takliflari. O'zo'zini ta'riflash metodi pedagogikaning boshqa ta'lim yo'nalishlari orasida kasb ta'limi yo'nalishiga ko'proq mos keladi, chunki ushbu yo'nalishda kasbiy kompetensiyalar komponentlarining turlari ko'p va xilmaxil bo'lib, kompetensiya elementlarini rivojlantirish va baholash shakllari ham turli tuman. Bunday yondashuv bo'lajak muhandispedagoglarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Portfolio” metodi. Mazkur metod talabalarning kasbiy kompetensiyalarining shakllanishini namoyon qiladigan materiallar va ma'lumotlar to'plamidan iborat bo'ladi. Portfolio ularning ta'lim jarayonida erishgan natijalarini, olimpiadalar, tanlovlar, xalqaro va respublika miqyosida tashkil etilgan konferensiyalardagi ishtiroki va yutuqlarini, nashr etilgan darslik, o'quv qo'llanma, ilmiytadqiqot ishlarini (patent, ixtiro, monografiya va boshqa) tasdiqlaydigan turli hujjat, sertifikat, diplom va guvohnomalari, shuningdek, bajarilgan topshiriq loyihalari,

keys, eskiz, chizma, tayyorlangan mahsulotlar, taqdimot, videoyozuvlar va hokazolardan iborat bo'ladi. Bajarilgan ishlar pedagoglar tomonidan tekshirilishi va baholanishi kerak, bunday metod, ayniqsa, kasb ta'limi yo'nalishlari talabalarining kasbiy kompetensiyalarini baholashda mos keladi.

Imitatsion topshiriqlar. Imitatsion (taqlidga oid) topshiriqlar bo'lajak kasbiy faoliyatga maksimal darajada yaqinlashtirilgan vaziyatlarni hal etishga qaratilgan topshiriqlardan iborat. Ushbu metodning mohiyati talabalarga qo'yilgan kasbiy vazifalarni mustaqil ravishda amalga oshirishlari uchun shartsharoitlarni yaratish, kasbiy faoliyat muhitiga olib kirish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarining shakllanib borishini nazorat qilish, talabada kasbiy kompetensiyalar mavjudligining dalillarini namoyish qilishdan iborat. Ushbu dalillar talaba tomonidan bevosita kasbiy faoliyatga tegishli bo'lgan vazifalarning yechilishi jarayonini kuzatish natijasida to'plab boriladi. Kuzatuvni o'qituvchi amalga oshiradi. Baholash yo'llari jihatidan bu metod imitatsion vaziyatlarda amaliy faoliyatga doir topshiriqlarni bajarish jarayonini baholash metodiga o'xshab ketadi. Imitatsiya shuni bildiradiki, baholanayotgan talaba o'zining kasbiy kompetensiyalarini kasbiy faoliyatga doir muayyan topshiriqni bajarish jarayonida emas, balki kasbiy vazifaning sharoitlari va maqsadini to'liq imitatsiya qiladigan vazifalarni amalga oshirish jarayonida namoyish qilishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellectual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

Yevropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi esa –bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi.

Bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- zamonaviy talabalar javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars

ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi;

- ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o'qituvchi, malakali o'quv ustalari, texnik xodimlar)ning bilim, ko'nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining etarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lishi;

- o'quv jarayonining moddiy-texnik (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio,televidenie, kompg'yuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbobuskunalari,audio, video, multimediya, trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar,videoproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar) jihatdan

etarlicha ta'minlanganligi;

- ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhit (o'qituvchilar, talabalar,rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarining o'zaro munosabatlari mazmuni,yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar) yaratilganligi;

- tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.
2

«O'qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O'qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

Buning uchun u:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;
- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

Funksiyalarni to'g'ri bajarish uchun pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi, har tomonlama rivojlanib, kasbiy o'sishi uchun qaysi yo'nalishda harakatlanishini bilishi kerak. Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'hashish bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiharadi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni

qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin. Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilar bilimlarni amalda qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi. Kompetentlik qanday shakllanadi?

O'qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta'limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko'nikmalar boshlang'ich kompetensiya darajasini to'ldiradi. Ko'p bosqichli ta'lim tizimida, yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubiyat bo'yicha olib borilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ta'lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohatlarni respublika pedagoglari ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash bilan mustahkamlashlari zarur. Avval ta'kidlanganidek, buning uchun pedagoglarimizni o'quv jarayoniga texnologik yondashuvlarini o'rgatish talab etiladi, bu esa pedagogik texnologiyadan foydalanishdan tashqari uni O'zbekiston madaniyati, an'analari va tajribasi bilan boyitishga olib keladi. O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy tahlil natijalaridan shuni takidlash mumkinki, o'qituvchining yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkich va mezonlarga egalik darajasi uning o'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda kasbiy kompetentlik darajasini baholash imkonini beradi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi, avvalam bor o'qituvchining jamiyatda dahldorlik hisi shakllanganligi hamda kommunikativlik, axborot bilan ishlash, o'zini doimiy ravishda rivojlantirish kompetensiyalariga egaligi bilan belgilanadi.

REFERENCES

1. Narimbetova Z.A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitishning me'riy faktorlari. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'beriston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. T. 2021, 1/6/1.
2. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш.
3. Монография. - Т.: Фан. - 2004. - 127 б., Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. //Пед. фан. докт. дисс. - Тошкент. - 2007. - 349 б
4. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-qunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'qrisida O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel, 187-son.
5. P.T.Abdugodirova, N.A.Mirxalilova "Matematik savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish shakllari va metodlari" O'zbekiston Respublikasi yosh olimlar kengashi."Fan va ta'limni rivojlantirishda yoshlarning o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy va ilmiy-nazariy anjuman.(2021). 100-101 b.
6. N.A.Mirxalilova "O'qish savodxonligini oshirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining o'rni" Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, echimlar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari . Farg'ona. (2022). 175-178 b.
7. Vladimirovich, G. Y. (2022). PRECEDENT-RELATED NOMINALS: CLASSES AND ORIGINS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 212-217.
8. МАРДОНОВ, Ш., & ЖАББОРОВА, О. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЯНГИ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *ЭКОНОМИКА*, 597-600.
9. Жабборова, О. М. (2021). БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ КАСБИЙ ТАЙЁРЛАШ НАЗАРИЯСИ. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 1053-1058.
10. Жабборова, О. М. (2021). SCIENTIFIC RESEARCH LABORATORY" FUTURE TEACHER" AND ITS ACTIVITIES. *Экономика и социум*, (8), 363-366.
11. Жабборова, О. М., & Ташпулатова, Д. (2021). SKILLS REQUIREMENTS FOR PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *Экономика и социум*, (5-2), 953-956.
12. Жабборова, О. М. (2021). CLUSTER METHOD OF TEACHING COMPULSORY AND ELECTORAL SUBJECTS IN HIGHER PRIMARY EDUCATION. *Экономика и социум*, (8), 359-362.
13. Жабборова, О. М. (2021). PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE FINE ART TEACHERS IN DIFFICULT CONDITIONS. *Экономика и социум*, (4-2), 1106-1109.

14. Жабборова, О. М., & Ахмедова, Н. Ш. (2021). FACTORS OF EDUCATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL IDEA. *Экономика и социум*, (4-2), 1110-1114.
15. Каримжонов, А., & Жабборова, О. (2021). YAN AMOS KOMENSKY'S VIEWS ON EDUCATION. *Экономика и социум*, (5-2), 977-983.
16. Jabborova, O. M. (2021). FUNDAMENTALS OF EXPANSION OF EDUCATIONAL SUBJECTS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM OF TEACHING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(08), 92-95.
17. Жабборова, О. М. (2022). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ТАРБИЯВИЙ ИШЛАР МАҚСАДИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 240-245.
18. Жабборова, О. М., & кизи Сапарбаева, Д. Т. (2022). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ЎЗЛАШТИРГАНЛИК ДАРАЖАСИНИ АНИҚЛАШ ДИАГНОСТИКАСИ. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 285-289.
19. Жабборова, О. М., & Ашурова, Д. Р. (2022). УНИВЕРСИТЕТ ТАЪЛИМИ ШАРОИТИДА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ КОНТЕКСТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 1129-1132.
20. Akhmedov, V. A., Askarova, M. R., Xudayqulova, F. V., Tojiboeva, G. R., Artikova, N. S., Urinova, N. S., ... & Omonova, S. M. (2022). PEDAGOGICAL SCIENCE EDUCATION MANEGMENT IN TEACHING SCIENCE OF PEDAGOGICAL SCIENCES. *Uzbek Scholar Journal*, 10, 529-537.
21. Туньян, А. А., Тошпулатов, Х. М., Ибрагимов, Ф. З., Умматов, А. А., Пулатов, А. А., Ашуркова, С. Ф. (2021). Развитие паралимпийского спорта в Ташкентской области. *Спорт и социум*, 5(14), 76-78.
22. Жабборова, О. М., & Ашурова, Д. Р. (2022). УНИВЕРСИТЕТ ТАЪЛИМИ КОНТЕКСТИДА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 1125-1128.
23. Жабборова, О. М. (2022). БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY*.
24. Jabborova, O. M. (2003). Values in practical art (pp. 346-348). In *Materials of the scientifically-theoretical and practical-methodical conference of teachers of the Tashkent State Pedagogical Institute*.
25. Jabborova, O. M., & Mardonov, S. Q. (2021). Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari. *Xalq ta'limi jurnali*, 2.
26. Жабборова, О. М., & Республикаси, Ў. (2021). Мураккаб шароитларда бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий тайёрлаш. *Ekonomika i sotsium*, 4, 83.
27. Uralovna JF. Definition Criteria of Synonyms in the Uzbek Language. *ANGLISTICUM. Journal of the Association for Anglo-American Studies*. 2018;7(5).
28. Жуманова ФУ. Касб-хунар коллежлари ўқувчиларида экологик маданиятни шакллантириш. Пед. ф. н... дисс. авт.